

“O‘zbekgeofizika” AJning korrupsiya faktlariga doir murojatlarni ko‘rib chiqish natijalari xaqidagi 2025-yil bo‘yicha HISOBOT

I. Umumiy ma’lumot

“O‘zbekgeofizika” AJning 2025 yilda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturi hamda “O‘zbekgeofizika” AJda korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarga rioya etilishini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti” talablari asosida joriy yil bo‘yicha Jamiyatga turli aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlar bo‘yicha monitoring tartibidagi o‘rganishlar olib borildi.

Jamiyatga kelib tushadigan ariza va murojaatlarni qabul qilish va xisobotini yuritish “Huquqiy masalalar va murojaatlarni ko‘rib chiqish” bo‘limi tomonidan, bo‘lim Nizomiga hamda “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 11 sentabrdagi 445-sonli Qonuniga va Vazirlar Maxkamasining 2018 yil 7 maydagi 341-sonli Qaroriga hamda “O‘zbekgeofizika” AJga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti” va “O‘zbekgeofizika” AJning qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish Siyosati” talablariga asosan amalga oshiriladi.

Joriy yilda Jamiyatga turli aloqa kanallari orqali jami 30 ta ariza va murojaatlar (17 ta elektron shaklda va 13 og‘zaki) kelib tushgan, shundan 2 tasi ishonch telefoni orqali, 7 tasi ishga kirish masalalari bo‘yicha, 5 tasi ssuda ajratish bo‘yicha, 2 tasi uy joy masalasi bo‘yicha, 2 tasi rahbarlarning hatti-harakatlari va 12 tasi boshqa masalalar bo‘yicha.

Ushbu kelib tushgan murojaatlardan 3 tasida korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi holatlari mavjudligi bo‘yicha o‘rganishlar olib borilgan.

2025 yilning yanvar oyida Jamiyat ijro apparati masul xodimi “F.E.N.” 2024 yil davomida bir necha bor Tojikiston Respublikasiga oilaviy sharoiti sababli chiqib kelganligi va ushbu jarayonda Jamiyatda o‘rnatilgan ichki-tartib qoidalar buzilganligi holati bo‘yicha ishonch telefoni orqali murojaat kelib tushgan.

2025 yilning fevral oyida ishonch telefoni orqali “Yakkabog‘ geofizika ekspeditsiyasi” filiali geofizigi “A.A.A.” tomonidan ichki-tartib qoidalarini, xususan “Axloq” kodeksi talablarini buzayotganligi to‘g‘risida kelib tushgan og‘zaki murojaat yuzasidan xizmat tekshiruvi o‘tkazilgan.

“Yakkabog‘ GE” filiali rahbariyati va masul xodimlari tomonidan ishchi xodimlarga ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni kamaytirish va boshqa holatlar bo‘yicha filial ishchi xodimlaridan kelib tushgan murojaatga va Yakkabog‘ tuman prokuraturasi taqdimnomasiga asosan, arizada ko‘rsatilgan holatlarni to‘liq va xolisona o‘rganish maqsadida xizmat tekshiruvi o‘tkazildi (2025 yil 29 avgustdagi 122-sonli buyruq).

II. Ko‘rib chiqish natijalari

Jamiyat ijro apparati masul xodimi “F.E.N.” hatti-harakatlarini o‘rganib chiqish maqsadida, Jamiyat Boshqaruv raisining 2024 yil 6 yanvar kunidagi 2-sonli buyrug‘i

asosida “Xizmat tekshiruvi” tayinlanib, ishchi guruh tomonidan holat atroflicha o‘rganildi.

O‘rganish natijalari bo‘yicha, “F.E.N.” 2022-2024 y.y. maboynida 11 (o‘n bir) kun ishga kelmagan kunlari uchun ish haqi, 5 (besh) kunlik xizmat safari xarajatlari hamda 2023 yil 23 fevral kuni “Nukus-Toshkent” reysi bo‘yicha avia-chipta xarajatlari, jami 4 788 003,34 so‘m pul mablag‘larini assossiz sarf qilganligi aniqlandi va ushbu mablag‘lar Jamiyat foydasiga undirildi.

“Yakkabog‘ geofizika ekspeditsiyasi” filiali masul xodimi “A.A.A.” rahbariyat tomonidan bir necha bor ogohlantirishlarga qaramasdan manfaatlar to‘qnashuvi holatini bartaraf etmasdan (tadbirkorlik sub’ekti ta’sischisi) va Jamiyatda o‘rnatilgan ichki tartib qoidalarga amal qilmasdan kelayotganligi bo‘yicha “A.A.A.” ning hatti-harakatlarini o‘rganish natijalariga ko‘ra, 2024 yilning sentyabr oyidan 2025 yilning fevral oyigacha doimiy ravishda ichki-tartib qoidalarini buzib kelganligi sababli (2025 yilning 27 fevral kuni 29-sonli buyruq bilan “Xizmat tekshiruvi” o‘tkazilgan), “A.A.A.” bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilindi (27.02.2025 yil 28-k sonli buyruq) va mavjud manfaatlar to‘qnashuvi holati bartaraf etildi.

“Yakkabog‘ GE” filiali rahbariyati va masul xodimlari tomonidan ishchi xodimlarga ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni kamaytirish va boshqa holatlar bo‘yicha filial ishchi xodimlaridan kelib tushgan murojaatga va Yakkabog‘ tuman prokuraturasi taqdimnomasiga asosan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvi (2025 yil 29 avgustdagi 122-sonli buyruq) natijalari va to‘plagan hujjatlar qonuniy qaror qabul qilish uchun Yakkabog‘ tuman prokuraturasiga yuborilgan.

Kelib tushgan arizalarni o‘rganish jarayonida korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘yilganligi to‘g‘risida ma’lumotlar olinmadi.

III. Minimallashtirish choralari

Jamiyat ijro apparati xodimlarini lavozimini oshirish bo‘yicha ishchi guruh hamda Jamiyat xodimlarining hatti-harakatlari yuzasidan “Odob-axloq” komissiyasi yig‘ilishlarida komplaens nazorati bo‘limi xodimlari ishtiroki ta’minlandi. Doimiy ravishda Jamiyatga kelib tushayotgan ariza va murojatlarni monitoring tartibida o‘rganiladi va korrupsiyaga karshi ekspertizadan o‘tqaziladi. Jamiyat uy-joy komissiya xamda buxgalteriya faoliyati monitoring kilinadi.